

2014.- N27-52. — VII-XII. Xp


# YAGONASAN, MUQADDAS VATANIM, SEVGI VA SADOQATIM SENGGA BAXSHIDA, GO'ZAL O'ZBEKISTONIM!

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:27 (66984)

2014-yil  
7-iyul



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

Shaxmatning  
rapid va blits  
yo'nalishlari  
bo'yicha  
jahon chem-  
pionlari  
Islombek va  
Javohir Sin-  
dorovlarga  
Prezidentimiz  
sovg'asi top-  
shirildi.



PREZIDENT Monitor

## SOVG'ASI TOPSHIRILDI

Avval xabar berganimizdek, Gretsiyaning Kavala shahrida maktab o'quvchilari o'rtasida shaxmatning rapid va blits yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan jahon birinchiligida aka-uka Islombek va Javohir Sindorovlar ikkitadan oltin medalni qo'lga kiritishdi. Bu xushxabar ham yurtlarimiz qalbini faxr va iftixorga to'ldirdi.

Kuni kecha poytaxtimizdagi «Olimpiya shon-shuhrati» muzeyida yosh shaxmatchilar Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan eng so'nggi rusumdagi zamonaviy kompyuter jamlanmasi bilan taqdirlandi.

Poytaxtimizdagi 300-umumta'lim maktabi o'quvchisi Javohir Sindorov to'rt yarim yoshidan shaxmat bilan jiddiy shug'ullanib keladi. Bugunga qadar u ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdi. Jumladan, yosh iqtidor egasi dastlabki g'alabasiga 2012-yili Hindistonning Dehli shahrida maktab Osiyo

championatida erishdi. U blits yo'nalishi bo'yicha 7 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar bahsida oltin, klassik shaxmat bo'yicha kumush medalga sazovor bo'ldi. Shuningdek, 2013-yili Eronda 18 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida kumush medalni qo'lga kiritdi.

Islombek Sindorov hali juda yosh bo'lishiga qaramay, 2012-yili Hindistonda bo'lib o'tgan qit'a birinchiligida 5 yoshgacha bo'lgan shaxmatchilar o'rtasida kumush medalni, 2013-yili Erondagi Osiyo chempionatida bir yo'la uchta oltin medalni qo'lga kiritdi.

**Biz yana bir bor yosh jahon chempionlarini ulkan g'alaba bilan tabriklaymiz!**

## Ushbu sonnda:

OITS VA  
GIYOHVANDLIKKA  
QARSHI  
BIRLASHAYLIK

2-bet

YO'LOUCHI

3-bet

SUVNI  
TEJASHGA  
O'RGANDIM

4-bet

RANGLAR  
BAHSI

6-bet

## YOZGI TA'TIL - BIR YILGA TATIR

Yoz chillasi avjida. Bog'-u  
rog'larimiz bolga, dasturxonla-  
rimiz noz-u ne'matlarga  
to'ladigan bu to'kinlik fasli  
kinga ham yoqmaydi, deysiz?!

(Davomi 2-betda)



# YOZGI TA'TIL - BIR YILGA TATIR

(Davomi. Boshi 1-betda)

Ayniqsa, bolajonlarimiz bu faslni juda yaxshi ko'rishadi. Chunki yozgi ta'til kunlari ularning miriqib dam olishlari, salomatliklarini mustahkamlashlari, turli tadbirlarda, ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etib, ijodiy, tashkilotchilik va yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishlari, kitob o'qib, dunyoqarashini boyitishlari, intellektual salohiyatini yuksaltirishlari uchun qulay palla sanaladi. Qolaversa, yangi o'quv yilini yangi kuch va g'ayrat bilan boshlashlari, bilim sirlarini mukammal egallashlari uchun ham ta'tilning maroqli, mazmunli o'tishi juda muhim. Davlatimiz tomonidan bolajonlarning yozgi dam olish mavsumini ko'ngildagidek tashkil etish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilayotgani ham bejiz emas.

Joriy yilgi mavsumda respublikamizning ko'plab so'lim go'shalarida, shuningdek, umumta'lim maktablari qoshida yozgi oromgohlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shahar va tumanlardagi «Barkamol avlod» bolalar markazlari o'g'il-qizlarning eng sevimli maskaniga aylangan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumanining Mang'it shahridagi «Barkamol avlod» bolalar markazi ham turli yoshdagi o'quvchilar bilan gavjum. Markazda tumanidagi 31-, 38-, 40-, 55-, 75-umumta'lim maktabi o'quvchilarining ta'tilni sermazmun o'tkazishlari, shuningdek, hunar sirlarini puxta egallashlariga sharoit yaratish maqsadida turli tadbir va loyihalar amalga oshirib kelinayapti.

– Markaz qoshidagi «Yumshoq o'yinchoqlar»

to'garagiga qatnab, o'yinchoqlar yasashni o'rganib oldik, – deydi mang'itlik opa-singil Madina va Nozima. – Hozirda «Yosh pazanda», «Bichish-tikish», «Kompyuter saboqlari» to'garaklariga ham qatnayapmiz. Maqsadimiz – ta'tilning har bir kunidan unumli foydalanish, hunarli bo'lish, kompyuter sirlarini egallash...

Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi 56-umumta'lim maktabi qoshida tashkil qilingan «Guldasta» kunduzgi bolalar sog'lomlashtirish oromgohida dam olayotgan o'g'il-qizlarning taassurotlari ham ta'tilni ona tabiat qo'ynidagi oromgohlarda o'tkazayotgan tengdoshlarinikidan sira qolishmaydi. Oromgoh qoshidagi «Yosh kitobxon», «Kamalak va biz»,

«Chempion izdoshlari», «Ashula va raqs», «Ertaklar olamiga sayohat» kabi to'garaklar kichikintoylarning bor iqtidor-u iste'dodlarini to'la namoyon etishlari uchun zamin yaratmoqda.

Maktab rahbari Galbahram Gasilova, to'garak rahbarlari Saida Akromova, Mohira Eramatova, Munira Hosilova, Muhayyo Fozilbekova, Gulchehra Haydarova o'quvchilarning maroqli dam olishlari uchun doimo izlanishdalar.

Yozni dam olish, hordiq chiqarish pallasi, dedik. Ayrim tengdoshlaringiz uchun u bilimni boyitish, o'rganganlarini sinovdan o'tkazish, izlanish, intilish mavsumi hamdir, desak, fikrimizga qo'shilasiz-a?

«Yurt kelajagi – 2014» iqtidorli yoshlar tanlovining tuman (shahar) bosqichlarida qatnashgan, ayni kunlarda bo'lib o'tayotgan viloyat bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritib, yakuniy bosqichda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritayotgan o'g'il-qizlarimizni nazarda tutayotganimizni darhol payqagandirsiz. Termiz shahridagi 3-umumta'lim maktabi o'quvchisi Komila Shoyimova tanloving Surxondaryo viloyati bosqichida internet jurnalistikasi yo'nalishi bo'yicha qatnashib, eng ko'p ball jang'ardi va tanloving respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Bunday xushxabarlardan quvonib jiddiy bellashuvlar qarshisida turgan Komila singari intiluvchan, bilimdon, zukko o'quvchilarimizga omadlar taylamiz! Sizlarga esa, aziz bolajonlar, tilagimiz: ta'tildan bir yilga tatigulik kuch-quvvat oling, dam olishingiz maroqli taassurotlarga boy bo'lsin!

Feruza JALILOVA

Har kuni televideniye orqali tamaki chekish va uning zararli oqibatlari haqida ko'p gapiriladi. Ammo aksariyat aholini bu haqdagi ma'lumotlar qiziqitirmaydigandek, go'yo...

## TAMAKIGA QARSHIMIZ

Men ham tamaki chekish, undan ajralayotgan tutuning inson salomatligi uchun nechog'li zarur ekanligini bilaman, do'stlaringim ham bu haqda gapirib beraman. Ba'zan ko'cha-ko'ya, jamoat joylarida tamaki chekayotgan odamlarni ko'rib, ular nafaqat o'zlarini, balki yon-atrofdagilarni ham zaharlayotganidan achinib ketaman.



Aziz tengdoshim, balki biror do'stingiz qiziqish yuzasidan tamaki chekib ko'rmoqchidir. Siz unga bu illatning zarari, oqibatlari haqida gapirib berishdan charchamang. Agar shunday qilsak, yoshlarimizni kashandalikning salbiy oqibatlaridan saqlab qolgan bo'lamiz.

Dilfuza QO'NISHEVA,  
Jizzax viloyati, Forish tumanidagi  
30-maktab-internati o'quvchisi

## OITS VA GIYOHVANDLIKKA QARSHI BIRLASHAYLIK

O'sib kelayotgan yosh avlod o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ularni giyohvandlik va OITSning salbiy oqibatlaridan voqif etish, bu yo'nalishdagi targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda qator tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Respublikamizdagi umumta'lim maktablari o'quvchilari va «Barkamol avlod» bolalar markazlarining to'garak a'zolari ishtirok etgan «OITS va giyohvandlikka qarshi birlashaylik», deb nomlangan ijodiy ishlar tanlovi bu boradagi ezgu ishlarining mantiqiy davomi bo'ldi.

To'rt bosqichda o'tkazilgan ko'rik-tanloving quyi bosqichlarida 800 mingdan ortiq iqtidorli o'quvchilar qatnashib, ular tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha giyohvand va toksik moddalar iste'molining halokatli oqibatlari, uning zararli ta'siri haqida o'z tasavvurlarini namoyish etishdi.

Ayniqsa, tanlov ishtirokchilari orasida buxorolik Shahnoza Umedovanning «OITSsiz kelajak sari», navoiylik Gulshoda Sharipovanning «Go'zal hayotingizni o'uga alishmang», namanganlik Jamshid

Murodovning «Oqibat» nomli ijodiy ishlarini yig'ilganlarda katta qiziqish uyg'otdi.

– Ushbu ko'rik-tanlovda o'zimizning

«Kelajakni asrang yosh avlod uchun», «Umr zavoli» kabi tasviriy ishlarim bilan qatnashdim. Yetti yoshimdan beri rasm chizaman. Ko'proq tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar mavzusida rasm chizishni yoqtiraman. Bo'sh vaqtimda ingliz tiliga oid bilimlarimni kengaytirishga harakat qilaman va badiiy kitoblarni mutolaa qilaman. Kelajakda rassom bo'lmoqchiman, – deydi Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumani 1-IDUM 8-sinf o'quvchisi, ko'rik-tanlov g'olibi Olimjon Hofuzov.



Tanlov yakunida g'olib va sovrindorlar tadbir tashkilotchilari tomonidan diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

Mahmudjon AZIMOV.  
A. HAMIDULLAYEV olgan surat

Vatan tuyg'usi! U hech qachon o'zgaraydi, hech qachon eskirmaydi. Bu so'zni har kim o'zicha ifodalaydi.

## VATAN TUYG'USI

Men Vatan tushunchasini ona allasi, momolar mehri, otalar, akalarning jasur va mardligida, deb bilaman. Bugun biz mustaqilligimizning 23 yilligi arafasida turibmiz. Shu qisqa fursat ichida amalga oshirilgan ishlar ko'lami juda katta, o'zgarishlar beqiyos. Har kuni televideniye orqali yurtimizga oid biror yangilikni ko'rib, to'liqlanib ketaman. Shunday yurt farzandi ekanligimdan



faxrlanaman. Bizga yaratilayotgan sharoitlar, imkoniyatlardan ruhlanib ketaman. Kelajakda bilimning yuksak cho'qqilarini zabt etib, Vatanimizga sodiq farzand bo'lib voyaga yetishga so'z beraman.

Xurshida ALIMOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, Uymovut qishlog'i

Marg'ilon shahridagi 2-imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi asosida bir qator ishlar amalga oshirilmogda.

## FAOL YOSHLAR MASKANI

Ta'lim maskanida zamon talablari asosida jihozlangan uslubiy xonalarda ustoz va murabbiylar tomonidan tayyorlangan mashg'ulotlar ishlanmalari, uslubiy qo'llanmalar, ko'rgazmali vositalar, shuningdek, to'garak a'zolari o'zlarini yasagan qo'l mehnati namunalari o'rin olgan.

E'tiborlisi, muassasa tarbiyalanuvchilari sport sohasida ham yaxshi natijalarni qo'lga kiritib kelmoqdalar. Farg'ona shahridagi «Neftchi» sport majmuasida «Sog'lom avlod – davlat taraqqiyotining asosi» shiori ostida stol tennisi bo'yicha bo'lib o'tgan musobaqada 8-sinf o'quvchisi M. Mashrapova eng yuqori pog'onani, X.Tojiboyeva hamda 7-sinf o'quvchisi Ye. Kalashnikova faxrli 3-o'rinni egallab, faxriy yorliqlar bilan taqdirlanishdi.

Muhammadjon MAHMUDOV,  
Farg'ona viloyati

Dam olish kuni erta tongda yo'nalishli taksilarning uyimizdan uncha uzoq bo'lmagan, oxirgi bekatiga qarab yo'l oldim.

Men o'tirgan taksining barcha o'rindiqlari bir zumda yo'lovchilar bilan to'ldi. Haydovchi mashinani asta o'rmidan qo'zg'atib orqaga yarim o'girilib, o'rindiqlarni ko'zdan kechirgan bo'ldi.

– Bo'sh joy qolmadimi?

Barcha yo'lovchilar yon-atrofimizga bir-bir qarab oldik. Keyin esa «Bo'sh joy yo'q», dedik hammamiz baravariga. Mashinamiz jadal yurganicha odamlar gavjum bo'lib turgan bekatning ro'parasida to'xtadi. Haydovchi orqa tarafda, to'rt kishilik joyda o'tirgan yo'lovchilardan yarim iltimos va yarim buyruq ohangida so'radi.

– Sal jipslashib o'tiringlar. Yana birkita odam olaylik. Ular ham manzilga yetib olsin.

Yo'lovchilar surilishib yonlaridan joy berishdi. Haydovchi mamnun holda o'tirganlarga qararkan, o'zining ortidagi o'rindiqda, unga qarama-qarshi o'tirgan bolaga ko'zi tushdi.

– Hoy polvon, – dedi

bolaning yelkasiga ohista turtib. – Sal surilib olgin. Bitta o'zing keng joyda yalpayib ketishingni qara. Yoningga yana bitta odam sig'adi, nariroq suril.

Bola yalt etib haydovchiga qaradi.

– Amaki, men o'tirgan joyimga pul



## YO'LOVCHI

(Voqeiy hikoya)

to'ladi-kul!

– To'lagan bo'lsang,

nima bo'пти? – dedi haydovchi jahll bilan.

– Siz keragidan ortiq odam olib, yo'l harakati qoidasini buzayapsiz, – dedi bola o'zini xotirjam tutganicha.

Uning bu gapidan haydovchining battar jahli chiqdi. Yo'lovchilar ham toqatsizlana boshlashdi. Kimdir «Sal surilsa nima qiladi» desa, yana biron «Bola to'g'ri gapiryapti», dedi.

– Tush mashinadan, – dedi jahli chiqqanidan yuzi-yu bo'ynigacha

qizarib ketgan haydovchi bolaga u bergan yo'lkitirni qaytib berarkan.

– Tushmayman, – dedi bola jiddiy



ohangda. – Siz mashinangizga chiqqan har bir yo'lovchi to manziliga yetkuncha ularning xavfsizligiga mas'ulsiz, siz esa noto'g'ri ish qilyapsiz. Bolaning gapi ta'sir qildimi, to'rt kishilik joyga beshinchi bo'lib o'rtnashgan yo'lovchi mashinadan tushib ketdi. Haydovchi esa «E-e», dedi-yu zarda qilganicha mashinani uchirguday bo'lib yeldira ketdi.

Oradan biror oylar o'tib tasodifan yana o'sha yo'nalishli taksiga chiqib qoldim. Haydovchining yonidagi o'rindiq bo'sh ekan, o'sha joyga

## GOLIBLAR QATORIDA

Yaqinda Qurolli Kuchlar davlat muzeyida maktab o'quvchilari o'rtasida «Vatan himoyasi – mening tasavvurimda» mavzusida tanlov o'tkazildi.



Tanlovda o'quvchilar tomonidan taqdim etilgan insho, she'r va rasmlar ko'rib chiqildi. Ushbu bellashuvda men ham «Qalbizdagi tuyg'ular ifodasi» nomli ijodiy ishim bilan qatnashdim. Tanlov yakuniga ko'ra qo'qonlik Nilufar Yo'ldosheva birinchi, namanganlik Marina Tastanbekova va toshkentlik Zuhra Adhamova ikkinchi o'rin sohiblari bo'lishdi. Javohir Ikromov, Umida

Mahkamova va men uchinchi o'rinni egalladik.

Shu kuni O'zbekiston Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansamblining xushovoz xonandalari ijrosidagi konsert dasturi barchaga birdek manzur bo'ldi.

Feruza ABDULLAYEVA,  
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 134-umumta'lim maktabi 6-«B» sinf o'quvchisi

### Huquqiy tarbiya

o'tirdim. Mashina biroz yurgach bola bilan bo'lgan voqeani unga eslatdim.

– Juda mahmadona bola ekan, o'shanda hammamizni xijolatga qo'ydiya, – dedim afsuslanib.

– Ha, Davronboyim?! – dedi haydovchi yuzida tabassum balqib. – Biz u bilan oshna bo'lib qoldik. Bu yil sakkizinchi sinfni bitiribdi. O'shanda uning gaplarini uyga borib yana bir o'yab ko'rdim. Ochiq'ini aytganda, u haq edi. Shundan buyon mashinaga ortiqcha odam olmaydigan bo'ldim. Ilgarigiday YPX xodimlari ko'rib qolsa nima bo'ladi, deb xavotirlanish ham yo'q. Eng asosiysi esa qoidani buzmay to'g'ri ishlangan baraka ham o'z-o'zidan kelaverarkan. Davronboy ko'zimni ochdi. Endi esa hamkasblarimga ham to'g'ri ishlangan, deb tayinlaydigan bo'ldim.

Haydovchi bilan manzilga yetguncha gurunglashib ketdik. U Davronboy haqida zavqlanib gapirgan chog'da xuddi mening o'g'limni maqtaётgandek quvonib ketdim. O'z huquqini yaxshi bilgan bu bolakayni shu chog'da nimagadir juda-juda ko'rgim keldi...

Yusuf ABDULLAYEV

## SOG'LIQ YODDAN CHIQMASIN

XXI asrni kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Boisi, bugun ko'plab yumushlarimizni bitkazish uchun unga yuzlanamiz. Ammo bu texnika qarshisida uzog vaqt o'tirish inson salomatligi uchun zararli ekanini eslatib o'tmoqchiman.

Barchamiz bilamizki, kompyuter monitoridagi axborotlarni boshqarishda yordamchi vazifani «sichqoncha» bajaradi. Bu qurilmani doim bir holatda ushlab turish hisobiga ham ba'zida kaftlarda sut kislotasi to'planib qolishi mumkin. Bunday holatda tez-tez qo'llarni aylana bo'ylab harakatlantirish zarur. Shuningdek, soatlab monitorga tikilish bosh og'rig'ini keltirib chiqarish bilan birga, ko'rish qobiliyatini ham pasaytiradi. Shunday ekan, monitor bilan ko'z orasida 60 – 80 sm. masofa bo'lishiga e'tibor qarating.

Bir so'z bilan aytganda, ishni deb sog'liqni yoddan chiqarmang. Zero, sog'liq tuman boylikdir.

**Nodira ARSLONOVA,**  
P. F. Borovskiy nomidagi  
tibbiyot kolleji o'quvchisi



Men buvijonimni ko'rgani qishloqqa tez-tez borib turaman. Bu safar borganimda, hoolini supurish uchun kattakon idishdan suv oldim-da, yon-atrofga sepa boshladim. Buni ko'rib, buvijonim menga: – Ichimlik suvini isrof qilma, ariqdan olib sep. – deya ko'yib berdilar.

## SUVNI TEJASHGA O'RGANDIM

Tushga yaqin uyda ichimlik suvi tugab qoldi. Nafisa opam bilan birga suv olib kelish uchun qo'shni mahallaga bordik. Kattakon idishni to'ldirgunimizga qadar qo'llarim toliqib, rosa charchadim.

Shunda o'ylanib qoldim. Uyimizda har kuni obihayot bo'lgani bois, hovliga ham ichimlik suvidan separamiz, hatto ba'zi qo'shnilarimiz mashinalarini ana shu suvda yuvishadi, tomorqalarini ham toza suv bilan sug'orishadi. Buvijonim yoshligimda, hovlimizdan oqib o'tadigan ariqda non oqizoq qilib yerdik, deb ko'p marta aytgandilar. Bugun esa o'sha ariq va zovurlar chiqindilar bilan to'lgan.

So'nggi yillarda insoniyatning suvga bo'lgan e'tiborsizligi oqibatida katta muammolar kelib chiqayotganligi sir emas. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi paytda jami 470 million kishi suv taqchilligi keskinlashgan mintaqalarda, 2,4 milliard kishi esa suv tozalash qurilmalari mavjud bo'lmagan o'lkalarda yasharkan. Yana yigirma yildan keyin suv yetishmaydigan o'lkalarda yashovchilar soni olti



baravarga ko'payib, uch milliard kishiga yetishi kutilmoqda.

Bugungi kunda suvni tejamkorlik bilan ishlatish, uyimizdagi nosoz jo'mraklarni tuzatib, undan besamar oqib yotgan obihayotni isrof qilmaslik, ko'cha, mahallalardan o'tadigan ariqlarga axlat tashlamaslik, albatta, qo'limizdan keladi, shunday emasmi, aziz tengdoshim?

**Odina SAHOBIDDIN qizi,**  
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi  
96-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## KITOBIM – TARBIYACHIM

Olti yoshga to'ladigan kunim menga «Jrkit o'rdakcha» kitobini sovg'a qilishdi. «Alifbo»ni to'liq bilganim uchun bu ertak kitobni bir-ikki kunda o'qib chiqdim va dadamdan yana shunday qiziqarli kitob olib berishlarini ittimos qildim. Maktabga borganimdan so'ng haqiqiy mo'jizaviy dunyoni o'zim uchun kashf etganday bo'ldim. Bu kitoblar dunyosi edi.

Esimda, o'shanda 5-sinfda o'qirdim. Bir kuni kitoblar orasida O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» asariga ko'zim tushib qoldi. Darrov o'qishga tutindim. Shunchalik berilib ketibmanki, hatto onam chaqirganlarini ham eshitmay qolibman. Uyga kirib qo'limdagi kitobga ko'zlari tushgach, «Qizim, bu kitobni o'qishingga hali erta», deb olib qo'ydilar. Asar meni shunchalik sehrlab qo'ygandiki, yig'lab yubordim. Lekin onamga hech narsa deyolmadim. Ular aytgan ishlarini bajarib bo'lgach, yana kitoblar orasidan sevimli asarimni qidirishga tushdim. Shunda to'satdan quvonchdan qichqirib yuboray dedim. Chunki kitoblar orasida «Ikki eshik orasi»ning yana bir nusxasi turardi.

Ayni tush vaqti, sevimli asarimni olib, sekin uyimiz orqasidagi boqqa o'tdim. Bu yerda salqin shabada esardi. Issiqdan



toliqqan qushlar daraxt shoxlariga qo'nib mudraydi. Kitobni quchoqlagancha tanasi bujur boboyong'oqning ustiga chiqib olib, asarni qolgan joyidan o'qishda davom etdim. Kitobni mutolaa qilib bo'lgach, ko'z yoshlarimni to'xtatolmasdim.

Robiya, Kimsan,  
Muzaffar,  
Munavvarning  
boshiga  
tushgan  
savdolarni  
murg'ak ongim  
tushinishga  
qiyinalardi. Keyinchalik

bu kitobni juda ko'p marta o'qib chiqdim. Biroq har gal kitobni mutolaa qilganimda hayotni o'zim uchun qaytadan kashf etgandek bo'lardim.

Oradan yillar o'tdi. Kitob tufayli hayotda ko'p narsalarga erishdim. Eng muhimi, ulardan oliyjanoblik va odamiylikni o'rgandim. Uch yoshli qizim «Kitob olib bering», desa quvonaman. Chunki kitob hayotimdagi eng yaqin do'stim, bilamanki, u farzandinga ham eng ishonchli va beminnat hamroh bo'la oladi...

**Saida IBODINOVA**

### Muhokama uchun mavzu

Sharq ayollari qadimdan odobi, farosati, go'zal qiyofasi bilan tillarda doston bo'lgan. Ajdodlarimiz tomonidan uzun, sunbul sochlar madh etilgan ko'plab nazmiy va nasriy asarlar bitilgan tarixdan ma'lum.

## SOCH HAM HUSN

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning «Xamsa» dostonidagi ayollar qiyofasidan ilhomlanib, taniqli rassom Chingiz Ahmarov chizgan «Yetti go'zal» portretini ko'zimiz oldiga bir keltiraylik. San'at asarlarida birorta qirg'ilgan, tartibsiz sochlarni ko'rmaysiz.

Ba'zan ko'cha-ko'yda sochlari yoyilib, yelkasiga tushgan yosh qizlarni uchratib qolamiz. Tirband transport vositalarida tartibsiz holdagi sochlar yon-atrofdagi katta-kichiklarda noxush kayfiyat uyg'otishini payqaymiz. Beixtiyor kishining tilidan «E, sochingni yig'ib olsang bo'lmaydimi?» degan xitob yangraydi. Axir shu qizlarning ota-onasi, buva-buvisi, aka-opalari bor-ku. Nega ular har tong o'qishga ketayotgan qizlarining soch turmagiga e'tibor berishmaydi?

Aziz qizlarjon, yangi hayot ostonasi sari ilk qadam qo'yar ekansiz, bilingki, siz yashayotgan yoshlikning o'zi bir go'zallik! Shunday ekan, qaldirg'och qanotdek nafis qoshlarni kesilgan sochlar ostiga yashirmaylik! Yaxshisi, sochlaringizni silliq tarab o'rib yursangiz, Sizga boqqanlarning bahri dili ochilib, ko'zi quvnaidi.

**Dilorom HOTAMOVA**



# MEN SHOIRA BO'LAMAN

*Tarixga nazar tashlar ekanmiz, buyuk bobolarimiz siyosi, ularning ezgu ishlari, gahramonliklari ko'z oldimizdan o'tadi.*

Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug'bek, Bobur kabi ulug' ajdodlarimizning yurt obodligi yo'lidagi ezgu ishlarini o'qib, har bir yosh avlod ko'nglida faxr-iftixor tuyg'usi jo'sh uradi.

Bugun yurtimizda biz yoshlarning ta'lim olishimiz uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etilgan maktablar, kollejlar va akademik litseylar bunyod etilmoqda. Chet tillarini puxta o'rganishimiz, sport bilan muntazam shug'ullanishimiz uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.



Bu she'r mening ijodimdan bir parcha. Nasib etsa, kelajakda yurt madhini kuylaydigan shoira bo'lib, ona Vatan oldidagi farzandlik burchimni sidqidildan ado etmoqchiman.

*Ismigul QO'ZIMURODOVA, Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi*

Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 44-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Madina ERGASHEVA tanlovga yuborgan rasmini «Maroqli sayohat» deb nomlabdi.




▲ INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ! LET'S LEARN ENGLISH! ▼


## HOUSEKEEPING THINGS (RO'ZG'OR BUYUMLARI)

1 VACUUM CLEANER 	6 MINCER 
2 SCISSORS 	7 CASSEROLE 
3 FRYING PAN 	8 ROLLING PIN 
4 GRATER 	9 HAIR DRYER 
5 IRON 	10 FAN 

## English tongue twisters (Tez aytishlar)



Early to bed,  
Early to rise  
Makes a man  
Healthy, wealthy and wise.




A good cook could cook as  
much cookies  
As a good cook who could  
cook cookies.


**FIND THE NECESSARY WORDS TO THESE EXPLANATIONS**

Electronic broom is a vacuum cleaner
It helps to dressmaker to cut the cloth they are ...
It helps us to become smaller any food it is a ...
It helps to smooth the clothes it is an ...
My sister always use it to dry her hair it is a ...

### RIDDLES (Topishmoqlar)



The golden stake is in the earth.  
It is food for all of us.  
Yer tagida oltin qozig,  
U hammaga bo'lar oziq.



Children are in the earth,  
Fields are their place  
Yer tagida bolalar,  
Makonidir dalalar.

Jizzax DPI qoshidagi  
2-akademik litseyining 2-bosqich o'quvchisi  
Zilola JAMOLOVA tarjimasi

Aziz o'quvchilar!  
Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahridagi Jahon otin Uvaysiy nomidagi adabiy to'garak haqida ko'p bora eshitgansiz.

1999-yilda tashkil etilgan mazkur to'garak, avvaliga marg'ilonlik 7-8 nafar umidli yoshlarni o'z atrofiga birlashtirgan bo'lsa, bugungi kunda shahar atrof hududidagi tumanlarda qalam tebratayotgan yoshlarning ijodiy maktabiga aylandi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan Respublika iqtidorli yosh ijodkorlarning ko'rik-tanlovlarida mazkur to'garak a'zolari faxrl

# FARG'ONADAN YANGRAGAN SADO

o'rinlarni egallab kelmoqda. Shuningdek, ular orasida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalari ham yetishib chiqayotganini alohida e'tirof etish lozim.

To'garak rahbari taniqli shoir, fidoyi murabbiy Ismoil Mahmud Marg'iloniy Farg'ona adabiy muhitida, xususan, Marg'ilonda o'ziga xos ustoz-shogird adabiy maktabini yaratdi.

Quyida Jahon otin Uvaysiy nomidagi to'garak a'zolarining ijodlaridan namunalar o'qiyisiz.



Vatan, ostonamdan boshlangan diyor,  
Adirlarda alvon gullagan chaman.  
Bobolardan yodgor hur qardoshlarim,  
Bugunim, ertangi kunimsan, Vatan!

Hurlik bayrog'ini ko'klarga tikkan,  
Sen Temur tug'ida porlagan chaqin.  
Vatan, ona mehri mujassam senda,  
Osmonsan musaffo ko'nglimga yaqin.

Vatan, qo'rg'oningda sheryurak mardlar,  
Har go'shang ko'zlariga to'tiyo maskan.  
Odillar, ulug'lar, avliyo, pirlar,  
Sendayin hur zamin bag'rida o'sgan.

Vatan, qarog'imda qalqigan yoshim,  
Hurman qirlaringda o'sgan lolangman.  
Otamsan ulug'vor, onamday munis,  
Mustaqil bag'ringda shoir bolangman.

Vatan, ostonamdan boshlangan diyor!

Saidxon HAFIZOV



Issiq bag'ringizga qo'yim kelar bosh,  
Qaynoq mehringizdan erigaydir tosh.  
Qarog'ingizda hech men ko'rmayin yosh,  
Ey, aziz, mo'tabar, munisam onam.

Siz menga Makka-yu Madina onam,  
Dunyoda men uchun tanho, yagonam.  
Erursiz boshimda mangu parvonam,  
Ey, aziz, mo'tabar, munisam onam.

Madh etay nomingiz bir umr tilda,  
Maqsadim sizni shod etishdir dilda.  
Barcha pandlaringiz yashar ko'ngilda,  
Ey, aziz, mo'tabar, munisam onam.

Sizni asragayman ko'z qarog'imda,  
Nur soching yashnagan hayot bog'imda.  
Bo'ling hamroh doim, har bir chog'imda,  
Ey, aziz, mo'tabar, munisam onam.

Madinabonu XOLMIRZAYEVA



To'garak a'zolari ustoz Ismoil Mahmud Marg'iloniy davrasida.

## BIZ BARKAMOL AVLODMIZ

Biz barkamol avlodmiz,  
Hur yurtning erkalari.  
Yakdilmiz, qo'shqanotmiz,  
Shu yurtning ertalari.

Ertamizdan ko'ngil to'q,  
Behisob imkonimiz.  
Shahd-u shijoat ila,  
Oqar tanda qonimiz.

Oppoq kunlar qo'ynida,  
Umr o'tar hur, shodon.  
Ulg'ayadi biz ila,  
Jannatmonand bu makon.

Muazzam JO'RAYEVA

Bir kuni turfa ranglar bahslashib qolishibdi. Davrada birinchi bo'lib qizil rang atirgul qiyofasida so'z boshlabdi. U yana nimalardir deb maqtangisi kelibdi. Ammo unga qarab turganlarning havasi kelayotganini ko'rib,

Ranglar dunyosining malikasi ekanim hamмага ayon. Qolaversa,

mening rangimdagi atirgullar muhabbat va go'zallik timsolidir. Shuningdek, chorrahadagi svetofordada ham mening rangim bor. Qizil chiroq yonishi bilan hamma unga itoat etadi...

U yana nimalardir deb maqtangisi kelibdi.

Ammo unga qarab turganlarning havasi kelayotganini ko'rib,

shundoq ham barchasi mening eng zo'r ekanimni tan olishadi, deb stolda turgan oq qog'ozga yonboshlabdi. Chunki u oq rang

# RANGLAR BAHSI

oldida yana ham go'zal ko'rinishini bilarkan-da.

...Maydonga yashil rang chiqibdi. U ham o'zini barcha ranglardan a'lo deb bilarkan.

– Agar atirgulning yam-yashil yaproqlari bo'lmagan-da edi, u bunchalar go'zal bo'lolmasdi. Yashil rang ham qizil kabi yashnayotgan hayot ramzi ekanini unutmanglar. E'tibor qilsangiz, yashash, yashnash so'zlari yashil so'ziga hamohangdir. Svetofordada yashil chiroqni hamma yo'lovchilar xush ko'radi, – u shunday deb yashil novda va yaproqlar qiyofasiga kirib, atirgulning yonidan joy olibdi.

Navbat sariq rangga kelganda, u kungaboqar qiyofasida davraga chiqibdi.

Menga bir qarang. Mitti quyoshga o'xshayman-a?! Quyoshsiz tiriklikni tasavvur qilib bo'lmaydi. Darvoqe, svetofordagi sariq rang odamlarni xavf-xatardan ogoh etadi.

U gaplarimga hech kim e'tiroz bildirmasa kerak, degandek mag'rur quyosh qiyofasida atirgulning tepasiga joylashib olib, qani, boshqa ranglar nima der ekan, deb quloq tutibdi.

– Osmon bu yuksaklik ramzidir. Uni ko'k rangdan boshqa rangda tasavvur qilib bo'lmaydi. Hatto osmonning yana bir nomi ko'k ekanini ham yaxshi bilasiz. Aytmoqchi, qizil, yashil va sariq ranglar o'zlarini hayot rangi deb

deya so'zini yakunlabdi ko'k rang.

Shu tarzda ranglar bahsi qizg'in davom etibdi. So'ng jigarrang, binafsha rang, qora rang, olovrang o'zini dunyodagi eng chiroyli va kerakli rang ekanini isbotlashga harakat qilishibdi. Faqat oq ranggina bu bahsga qo'shilishni istamabdi.

U qog'oz yuzida yanada oqarib, boshqa ranglarni bag'riga olganicha jim yotaveribdi.

Shu payt stol ustiga qog'ozini qoldirib ketgan Temur kelib qolibdi. U kabutar yasamoqchi bo'lgan oppoq qog'oziga kim shuncha rasmlar solganiga hayron bo'libdi. Endi oq qog'oz bo'lmagach kabutar yasay olmasligidan afsus chekibdi. Ammo shu payt xayoliga ajoyib fikr kelib, bu rangli qog'ozdan varrak yasab ko'kka uchiribdi. Pastdagi bolalar antiqa rangdor varrakni tomosha qilar ekan. «Voy-bo», buncha chiroyli ranglar jamuljam varrak bo'lmasa», deya olqishlabdi.

Shunda oq rang tilga kirib:

– Ko'rdingizmi, do'stlarim, hayotda har birimizning o'z o'mimiz bor. Varrak xilma-xil ranglari bilan go'zal bo'lgani kabi hayot ham o'zining turfa ranglari bilan go'zaldir, – debdi. Uning bu gapini hamma ranglar ma'qullashibdi.

Hidoyat OLIMOVA



## TAILAND SARI OLG'A

*Namanganda 13-14 yoshli o'smirlar o'rtasida muaytay bo'yicha O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi.*



O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi tashabbusi bilan o'tkazilgan musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlardan 147 nafar sportchi o'zaro kuch sinashdi. Murosasiz kechgan janglar yakuniga ko'ra, Namangandan Jasur Abdurahimov, Bobur

Hakimjonov, Abdulbosit Abdulahadov, Rahim Boltaboyev, Samarqanddan Dilshod Ne'matov, Islom Abdulkarimov, Xorazmdan Aziz Madaminov, Andijondan Omad Komilov, Toshkent shahridan Nodir Komilov, Aziz Lutfullayev, Muhammad Mamatov, Abdulboriy Yunusov, Abdullo Norboyev, Qoraqalpog'iston Respublikasidan Islom Mirmiyazov o'z vazn toifasida oltin medalni qo'lga kiritdi.

G'oliblar shu yilning oktabr oyida Tailandda bo'lib o'tadigan Osiyo chempionatida mamlakatimiz sharafini himoya qiladi.

Shoh MUHAMMAD



*Bugun iqtidorli tengdoshlaringizning sport sohasida erishayotgan yutuqlari tahsinga sazovor. Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 28-umumta'lim maktabi o'quvchisi Hojiakbar Qodirov ham bo'sh vaqtlarida Chilonzor tumanidagi 8-BO'S.M goshida ochilgan boks to'garagiga qatnab, o'z salomatligini tiklash barobarida qator muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib kelmoqda.*

## HOJIAKBARNING ORZUSI

– Murabbiylarim Habibullo Usmonov hamda Bekzod Xidirovdan ushbu sport turining sir-asrorlarini mukammal o'rganishga ahid qilganman, – deydi Hojiakbar. –Yaqinda Nosirjon Isoilov xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan musobaqada qatnashib, faxrli ikkinchi o'rinni egalladim. Kelajakda Muhammadqodir Abdullayev, Elshod Rasulov singari mohir bokschi bo'lib, xalqaro musobaqalarda yurtimiz sha'nini munosib himoya qilmoqchiman.

Mana, ko'rdingizmi bolajonlar, tengdoshingiz Hojiakbar hozirdanoq o'z oldiga ulkan maqsad qo'yib, uning ijobati uchun astoydil harakat qilmoqda. Siz ham o'qing, izlaning, intiling. Ana shunda yuksak cho'qqilarni zabt etib, maqsadingizga yetishasiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA.  
Surat muallifi:  
Zuhra NISHONOVA

*Yurtimizda yoz faslining jazirama hukmronlik qilayotgan ayni kunlarida yoshlar ishtirokida turli sport musobaqalari o'tkazilmoqda. Bu esa farzandlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ular o'rtasida sportni ommalashtirishga xizmat qilmoqda.*

## SIRDARYODA SPORT BAYRAMI

Yaqinda Sirdaryo viloyatida o'smirlar o'rtasida kikkboksing bo'yicha O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Kikkboksing federatsiyasi hamkorligida tashkil etilgan musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan 250 nafardan ziyod umidli sportchi 20 vazn toifasida o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazishdi.



Aytish mumkinki, har bir vazn toifasi bo'yicha o'tkazilgan bahslar o'zining murosasizligi, shiddatkorligi bilan alohida ajralib turdi. Ayniqsa, Toshkent shahri, Farg'ona, Namangan, Jizzax, Andijon va Sirdaryo viloyati sportchilarining chiqishlari, g'alaba sari qat'iy intilishlari muxlis-umutaxassislarda katta taassurot qoldirdi.

Yakunda umumjamoa hisobida Toshkent shahri vakillari birinchi, Andijon viloyati sportchilari ikkinchi, mezbonlar esa faxrli uchinchi o'rinni egalladi.

Musobaqa g'oliblari tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

S. TURSINOV

## HAM TARJIMON, SPORTCHI

*Hozirgi kunda sport sohasida o'z iste'dodini to'la namoyan etib, ulkan yutuqlarga erishayotgan yoshlarimiz ko'pchilikni tashkil etadi. Vatani uchun munosib farzand bo'lishni niyat qilgan ana shunday jasur o'g'lonlarimizdan biri Shahzodbek Abdurahimovdir.*

Shahzodbek bir necha yildirki, sportning taekvando turi bilan shug'ullanib keladi. Ayni paytda bu iqtidorli tengdoshingiz poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi Qo'rg'ontepa nomli bolalar sport majmuasi a'zosi.

Shahzodbek o'tgan yillar mobaynida sport sohasida qator yutuqlarni qo'lga kiritib, ustozlari ishonchini oqlab kelmoqda. Jumladan, u 2012-yil poytaxtimizdagi «Jar» sport majmuasida bo'lib o'tgan taekvando bo'yicha bellashuvda yorqin natijalarga erishdi. 2013-yil Qozog'istonning Olmaota shahrida bo'lib o'tgan musobaqada ham I va II o'rinnlarni egalladi.

Shuningdek, 2013-yil iyun oyida o'tkazilgan Osiyo chempionatida 2 marotaba II o'rinni, 2014-yil O'zbekiston chempionatida I o'rinni qo'lga kiritdi.

Hozirda O'zbekiston Jahon tillari universiteti qoshidagi 1-akademik litseyida tarjimonlik yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan Shahzodbek shu yili Italiyada bo'lib o'tadigan nufuzli musobaqaga jiddiy hozirlik ko'rmoqda.

Biz esa yosh chempionimizning ko'ksini bezab turgan medallar soni tobora ortib borishi va ular orasidan jahon chempionatining oliy medali ham o'rin olishini tilaymiz.

Sadoqat HOTAMOVA



Ona zamin ne'matlari



## SHAFTOLINI YEMABSIZ...

Shaftoli sersuv, juda shirin va kishi organizmi uchun foydali meva hisoblanadi. U ra'noguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, vatani Markaziy Osiyodir.

Bundan 2 ming yil ilgari shaftolining turlari madaniylashtirilgan. Uning bir qancha navlari bizgacha yetib kelmagan. O'zbekistonda ekin maydoni jihatidan mevali daraxtlar orasida shaftoli 3-o'rinni egallaydi.

Bog'dorchilikda, asosan, oddiy shaftoli navlari o'stiriladi. Bo'yi 3-9 m, bargi ketma-ket joylashgan, nashtarsimon, gullari ikki jinsli. Mevasi sersuv, danakli, yassi dumaloq, tuxumsimon, oqish yashildan to'q qizilgacha, tukli va taksiz.

Tarkibida 80-90 foiz suv, 10-14 foiz qand, 0,56 - 1,26 foiz pektin, shuningdek, oshlovchi va azotli moddalar, A, C, V vitaminlar, danagi mag'zida 20-60 foiz yog', amegdanin, oqsil moddalar va boshqalar bor.


O'zbekistonda uning 50 ga yaqin navlari yetishtiriladi. Shaftolining ertapishar turlaridan anjir, lola, morettini, o'rtapishar - zafar, shirinmag'iz, oq, kechki - salviy, Farhod navlari ko'p ekiladi.

Yozning jazirama issig'ida shaftoli mevasidan tayyorlangan sharbat joningizga huzur bag'ishlashi, shubhasiz.

MANZURA



## BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!



Ushbu shakldagi doirachalar ichiga 1 dan 7 gacha bo'lgan raqamlarni shunday joylashtiringki, sonlar yig'indisi har bir rombdan 13 ga teng bo'lsin.

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

## JONIVORLAR OLAMI



Bolajonlar, quruqlikdagi eng ulkan jonivor qaysi ekanligini bilasizmi? Bu Afrika filidir.

Fil quruqlikda yashovchi eng yirik sut emizuvchi jonivor hisoblanadi. Afrika fili asosan, Afrika va Hindistonda, Osiyo fili esa Xitoy, Indoneziya, Vyetnam, Tailand kabi mamlakatlarda yashaydi. Fillar asosan, poda bo'lib yashashadi. Har bir poda, odatda, 9-12 ta jonivordan iborat bo'ladi.

Filning bo'yi 4-4,5 metrgacha, og'irligi esa 8 tonnaga yetadi. Uning quloqlari xuddi yelkanga o'xshaydi, oyoqlari esa qalin xodani yodga soladi. Jag'ining ustki va pastki qismida bittadan oziq tishi bor, ular vaqti-vaqti bilan yeyilib tushib, o'tmiga boshqasi o'sib chiqadi.

Tishlari va uzun xartumi yuqori lablar va burun o'mida joylashgan. Fil xartumi bilan hidni juda yaxshi sezadi. U daraxt barglari, o'to'lanlar bilan oziqlanadi. Katta yoshdagi fil bir kunda 140 kilogrammgacha ozuqa yeydi.

Ona fil ikki yilda bir marotaba bolalaydi. Yangi tug'ilgan fil bolasining og'irligi 90-100 kilogrammgacha yetadi. Ular asosan, 70-80 yil hayot kechiradi.

ZUBAYDA tayyorladi

## TOPISHMOQ

Rangi qizil,  
O'xshaydi tutga.  
Qizilligi,  
O'xshar yoqutga.

Ekinzorni orala,  
Pishganini sarala,  
Mazasi zo'r, bay-bay-bay,  
Buni derlar ...

E'zoza MUHAMMEDOVA,  
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi  
193-umumta'lim maktabining  
7-«D» sinf o'quvchisi



- Bugun oromgohda qanday sport musobaqasi bo'ldi? - so'radi dadasi erkatoygina o'g'lidan.

- Futbol, - javob berdi o'g'il. - Mendan boshqa hech kim darvozaga to'p kiritilmadi, yakunda hisobimga ikkita gol yozib qo'ydim.

- Yo'g'-e, - xursand bo'ldi dadasi. - Demak, g'olib bo'libsizlar-da.

- Yo'q, durang bo'ldi.  
- Qanaqasiga?  
- Hisob bir-u bir.

Muzaffar AHMEDOV

8

7-iyul 2014



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib),  
Sobitxon TURG'UNOV,  
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi  
muharrir  
Axtamqul  
KARIMOV  
Rassom  
Feruzbek  
KAMOL o'gli

Manzillimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 30967  
Buyurtma - S 339